



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Shamsiyev Dilshod Isroil o‘g‘li¹, Allambergenov Hamza Kamalovich²

¹ Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
magistranti

² O‘zbek adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

„HAYRAT-UL ABROR“DOSTONIDA,, ME’ROJNOMA“BOBINING BADIY TALQINI

Anotatsiya

Maqolada buyuk so‘z san’atkori Alisher Navoiy „Xamsa“si, xususan, „Hayrat ul-abror“ dostonidagi me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan bobning o‘ziga xosliklari, uning boshqa dostonlaridagi mazkur motiv bilan mushtarak hamda farqli jihatlari tipologik tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: „Xamsa“, „Hayrat ul-abror“, me’roj tuni, Haqning elchisi, payg‘ambar, buroq oti, sayyoralar.

Kirish (Introduction). Asrlar davomida Mir Alisher Navoiy hazratlari o‘z ijodiy kamolot jilvasi, serqirra mavzularning ajoyib badiiy talqini bilan insoniyat ahlini hayratga solib kelmoqda. Uning ilmiy, badiiy, ma’rifiy, diniy va boshqa sohalar bo‘yicha bildirilgan mulohazalari, qarashlari bugungi kun ilm-fan ahli uchun ham dolzarb. Shu, ma’noda zakiy ijodkorning ayrim asarlarida butun bob shaklidagi yoki nazmiy, nasriy parchalar sifatida uchraydigan va me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan qismlar uning nechog’lik kuchli badiiy tafakkur egasi ekanligini dalolatlaydi.

Ta’kidlash kerakki, Mir Alisher Navoiy, avvalo, o’zigacha yaratilgan Sharq allomalarining nodir asarlarini, Qur’oni karim mazmun-mohiyatini, diniy bilimlarni puxta o’zlashtira olgan buyuk allomadir. U davlat ishidagi faoliyatida ham, ijodiy faoliyatida ham buni uyg‘unlashtira olgan. Bilamizki, me’roj tuni – ilohiy kecha sifatida talqin qilinadi. Alloh taoloning o‘z suygan bilan uchrashishi, Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizning bandalarning qilgan gunohlarini kechirishini so’rash uchun qilingan mo’jizakor safar tasviri.



Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbek va jahon adabiyotshunosligida turkiy xalqlar adabiyotining faxri, iftixori sanaluvchi Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqish, unga murojaat qilish har doim ham kuchli bo‘lgan. XX va XXI asr o‘zbek adabiyotshunosligi, xususan, navoiyshunoslik sohasi so‘nggi yillarda Mir Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish, uning tunganmas buloq yaxlit betakror ma’nolar xazinasidan yangi durlarni kashf etish, ilmiy asoslangangan tamoyillar va faktlarni ilgari surish borasida qator yutuqlarga erishmoqda.

Biz so‘z yuritayotgan Navoiy dostonlaridagi me’roj tuni tasvirining badiiy talqini masalasi ham ulkan adib ijodining hali o‘rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan alohida yo‘nalishidir. Mazkur mavzu to‘g‘risida Uzoq Jo‘raqulov, Abdumurod Tilovov, Karomat Mullaxo‘jayeva, Shahnoza G‘ofurova singari adabiyotshunos olimlarimiz o‘z maqolalari va tezislarida munosabat bildirganlar.

Xususan, ustoz Uzoq Jo‘raqulov „Hayrat ul-abror“da na’t maqolasida me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan oxirgi – „Beshinchi na’t“ning ma’rifiy-badiiy mohiyatiga ko‘ra, „Xamsa“ olamida tasvir etilgan inson fenomeni ishg‘ol etgan eng oliy cho‘qqi hisoblanishi, bundagi zamon-makon ko‘lami „Hayrat ul-abror“ning „hamd“ va „munojot“ qismlaridagi „uch olam“ miqyosi bilan tutashib ketishini bayon qiladi hamda so‘nggi na’tning yetti tasnify bo‘laklardan tarkib topishi haqida yozadi. [1: 81-83]

Abdumurod Tilavov „... Sen erding quyosh...“ maqolasida Alisher Navoiyning me’roj tuni ta’rifi bilan bog‘liq bo‘lgan bir na’t g‘azali tahlil qilingan. Hazrat Alisher Navoiyning payg‘ambarimizga bo‘lgan samimi, pokiza sevgi-muhabbatlarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlash barobarida Islom tarixi, xususan, Payg‘ambarimiz tarixining ham bilimdoni ekanini namoyon etishi ko‘rsatilgan. [2: 260-265]

Fayzulla Salayev hamda Gulmirza Qurboniyozovlarning „Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi“ lug‘at kitobida me’rojnomalar so‘zining atama sifatida izohi haqida so‘z yuritiladi. Buyuk shoir qalamiga mansub „Xamsa“ dostonining har birida me’roj mavzusiga alohida bob ajratilgani, shuningdek, „Xazoyin ul-maoniy“ devonlarida ushbu hodisa tasviriga bag‘ishlangan g‘azal shaklidagi me’rojnomalar mavjud ekanligi bayon etiladi. [3: 133]

Shuxrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatovlarning hammualliflikda yaratgan „Navoiyshunoslik“ (1-kitob) darslik kitobining „Xamsa“ dostonlarining tarkibiy tuzilishi masalasiga bag‘ishlangan mavzularda Navoiyning me’rojnomalari xususida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. [4]

Ammo Navoiy me’rojnomalari, uning tarkibiy qismlari, obrazlar tizimi va o‘ziga xosligi borasida haligacha yirik monografik tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu esa yangi davr o‘zbek navoiyshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada so‘z yuritilgan masalalarni tadqiq etishda o‘zbek navoiyshunosligi va mumtoz adabiyotshunoslik ilmining me’rojnomalar to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy qarashlariga suyanildi. Ushbu kichik tadqiqot ishini yoritishda qiyosiy-tarixiy, matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Alisher Navoiy „Xamsa“sining dastlabki „Hayrat-ul abror“ dostonidayoq keyinchalik har bir dostonda so‘z yuritilgan alohida masala – me’roj tuni haqidagi qarashlarini ifoda etadi. Dostonning payg‘ambar madhiga bag‘ishlangan na’t qismi besh (VII, VIII, IX, X, XI) bobdan tashkil topgan. Birinchi na’tda



payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) paydo bo‘lgan nurning qadimiyligi haqida; ikkinchi na’t payg‘ambarimizning bolaligi; uchinchi na’t payg‘ambarlik davridagi faoliyati, insoniy xususiyatlari haqida; to‘rtinchi na’t me’roj tuni ta’rifi hamda Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizning ana shu ulug’ kundagi harakatlari tavsifi keltirilgan.

Biz mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda Navoiyning ushbu dostonidagi me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan bobning o‘ziga xos xususiyatlari, uning badiiyati, „Xamsa“ tarkibidagi boshqa dostonlarda hamda „Lison ut-tayr“da keltirilgan me’roj tuni ta’rifi bilan mushtarak va farqli jihatlari haqida so’z yuritish bilan cheklanamiz.

„Hayrat-ul abror“ dostonida ushbu kechaning ta’rifi (XI bob) Qur’oni Karimda nozil qilingan sura bilan boshlanadi: „Me’roj kechasi ta’rifidakim, karimai: „Subhonallazi asro“ anga musaddaq durur va „biabdihi laylan minal – masjidil haromi ilal masjidil – aqso“ aning subutig‘a ikki guvohi sodiq“. [5: 27] Qur’oni Karimning (Isro surasi, birinchi oyati)da: „O‘z bandasini kechasi Masjidul Haromdan atrofini barakali qilganimiz Masjidul Aqsoga oyatmo‘jizalarimizni ko‘rsatish uchun sayr qildirgan zot pok bo‘ldi. Albatta, U eshitguvchi va ko‘rguvchi zotdir.“ [6: 282] Demak, ushbu mo‘jizaviy tunda pag‘ambarimiz (s.a.v.) Masjidul Haromdan, ya’ni Makkadagi muqaddas joydan Majidul Aqsoga, ya’ni „uzoqdagi masjid“ ma’nosini bildiruvchi Quddusi Sharif shahrida joylashgan qadimiy mashhur masjidga boradilar va u yerdan samoga ko‘tariladilar. Mana shunday dalil bilan boshlangan me’rojnama asarning badiiyatini yanada oshirgan. Me’rojnama **boshlanmasida** shu kabi Qur’oni Karimdan misol keltirish holati „Xamsa“ning „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Saddi Iskandariy“ dostonlarida ham mavjud.

Jumladan, „Farhod va Shirin“ dostonida: „Minaz zulumoti ilan-nur“din muxbir erdi, ...pok oti ila „nurin alo nur“din xabar berdi [7:11]; „Layli va Majnun“ dostonida: Ul shomi visolningkim, „Val- layli izo yag’sho“ oyati bo‘la olg‘ay... [8:12]; „Saddi Iskandariy“ dostonida: ...ko‘ngli g‘unchasi „mozog‘al-basaru va mo tag‘o „jo ‘yboridin ... muvaqqas qoshlari „qoba qavsayni av adno“ e’tiboridin bahrayob [9:15] kabi misollar uchrassa, „Sab’ai sayyor“ hamda „Lison ut-tayr“ dostonlaridagi me’rojnama boblarida **boshlanmalar** faqat badiiy tasvir vositalari yordamidagina bayon etilgan.

Navoiy dostonlaridagi „me’rojnama“ voqealari tasviri **baytlar soni – ya’ni hajm** jihatidan ham bir-biridan farq qiladi: Xususan, „Hayrat-ul abror“ dostonida me’roj tuni ta’rifi (XI bob) 53 bayt, „Farhod va Shirin“da (VI bob) 68 bayt, „Layli va Majnun“ning (IV bob) 100 bayt, „Sab’ai sayyor“ dostonida (IV bob) 92 bayt, „Saddi Iskandariy“da (IV bob) 125 bayt, „Lison ut-tayr“ dostonida esa (IV bob) 53 baytni tashkil etadi.

Bundan tashqari, dostonlarda me’rojnomalarning boblardagi **joylashish o’rni** ham barchasida bir xil emas. Masalan, me’roj tuni ta’rifi „Layli va Majnun“, „Sab’ai sayyor“, „Saddi Iskandariy“, „Lison ut-tayr“ dostonlarida IV bob tarkibida keltirilgan bo’lsa, mazkur motiv „Hayrat-ul abror“ dostonida XI bobda, „Farhod va Shirin“ dostonida esa VI bobdan joy olgan.

„Hayrat ul-abror“ dostonida me’rojnama voqealari **tun tasviri** bilan boshlanadi, bu dostonda yetti baytni o‘z ichiga olgan. Shoир – bir kecha koinot zulmatga qolganida, quyosh obi-hayot bulog‘idek yashiringanini tamsil san’ati orqali mohirona tasvirlagan:

Bir kecha zulmatga qolib koinot,

Mehr nihon o‘ylaki aynul-hayot.



Keyingi baytdagi kechaning tasvirida Xizr nomining kelishi talmeh san'atiga misol bo'la oladi:

Garchiki ul chashma nazardan qochib,
Xizr ko'k uzra qatarotin sochib.

Tun changlarini xushboy hidga aylantirishi, jannat shabadalari ularni yer uzra tarqatishini Navoiy quyida tashxis san'ati orqali chiroyli dalillaydi:

Tun qilibon gardini anbarsirisht,
Butratibon yerga nasimi bihisht.

Navoiy keyingi baytlarda ham kecha tasvirini chiroyli dalillar va badiiy tasvir vositalari bilan yoritib beradi:

Yer kuraviy shakl ila mijmar bo'lub,
Kecha savodi anga anbar bo'lub.
O't kibi yer mijmari ostida mehr,
Yopib etak mijmari ostida sipehr [5:27]

Birinchi baytda tashbeh, tashxis san'atlari qo'llanilgan bo'lib, yerning yumaloq shakldagi idishga aylanishi, kechaning qorong'uligidan unga anbar tayyorlanayotgandek bo'lsa, ikkinchi baytda Yer idishi ostida quyosh o't yoqishi – tashxis san'ati, osmon o'z etagi bilan idishni yopib turgandek bo'lishi – tashxis, tashbeh san'atining ajoyib na'munalari bo'la oladi.

Navoiy dostonlarida me'rojnomalar ta'rifi bir-biriga o'xshamagan, takrorlanmaydigan, o'zgacha bir ruhda bayon etilgan. Jumladan, biz yuqorida „Hayrat-ul abror“ me'rojnomasidan keltirilgan kecha tasvirini shoir keyingi dostonlarda shunday keltiradi:

Ul aqshomkim, yuziga lu'bati Chin,
Eshib marg'ula yoydi zulfi mushkin.
Nasim ul mushk isin burotti har yon,
Havo ra'nolarig'a sotti har yon. [7: 11]

„Farhod va Shirin“ dostonining me'rojnomasi bobidan keltirilgan ushbu baytda Chin go'zali mushkin sochlarini o'sha oqshom yuziga yoyishi – mubolag'ali tasvir bo'lsa, nasim, ya'ni mayin shamol Chin go'zali sochlaridan taralgan mushk isini havo ra'nolariga tortiq etishi – husni ta'lil san'atiga misol bo'la oladi. Navoiy „Layli va Majnun“ning me'rojnomasida ham tunni o'zgacha tasvirlaydi:

Tun dahr yuzidin oritib meng,
Kunduzni o'ziga tutmayin teng.
Kunduz uyolib bu holatidin,
Kim yerga kirib xijolatidin. [8: 13]

Tashxis hamda mubolag'a san'ati orqali bu me'roj kechasida tun jahonning yuzidan xolini artib, kunduzni o'ziga teng tutmasligi. Bundan xijolat bo'lgan kunduz uyalganidan yerga kirib ketishi betakror badiiy tasvir asosida yoritiladi. Biz bunday misollarni har bir me'rojnomada ko'rishimiz mumkin.



Elchining xabaridan so‘ng payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning u olib kelgan Buroq otiga minib, samoga ko‘tarilishi „Hayrat-ul abror“ dostonida o‘ziga xos tazrda ifodalanadi. Uning yo‘lida yetti qavat sayyora va burj yulduzlari uchrashi bayonida **Oy** unda tuynuk vazifasini bajarsa, **Atorud** bunda hurmat topishi ta’rifi – miflarda uning yozuvchilarning homiysi ekanligi bilan bog‘liq. **Zuhra** cholg‘u asbobini sozlab, payg‘ambarni mayin qo‘shig‘i bilan qutlay boshlashi ta’rifi – uni shoirlar osmon cholg‘uchisi deb tasvirlashlari bilan bog‘liq. **Quyosh** uning soyasidan o‘z jamolini ko‘rsatmay qo‘yishi tasvirida biz me’rojnomaning nasriy tabdili va nazmiy bayoni bir-biriga hamohang tarzda berilmaganligini ko‘ramiz:

Soyasidin mehr chiqarmay jamol...

Tabdilda: „Quyosh o‘z soyasi bilan uning jamolini to‘sib turar“ [10: 30] – deb keltirilgan.

Bahrom (Mars)ning yuziga sharaf tig‘i ko‘zgu bo‘lishi ta’rifi – uning mard va jasur ma’nolarida bo‘lishi bilan ham bog‘liq. Payg‘ambar (s.a.v.)ning tashrifidan **Mushtariy**ning martabasi oshishi – uning falak qozisi degan majoziy ma’nosini bilan bog‘liq sanaladi. **Zuhal** zulmatni nurga aylantirib, uning qora otini g‘oyatda oq qilib ko‘rsatishi tasviri – Zuhal yulduzining nuri o‘tkir, yorug‘ va shaffof ekanligiga ishora. Bu yulduzning nuri o‘tkirligi haqida Qur’oni Karimning Toriq surasida ham nozil qilingan. [6: 591]

Mazkur yetti sayyora „Xamsa“ tarkibidagi barcha doston me’rojnomalari hamda „Lisonut-tayr“ dostonining me’rojnama boblarida ham kelgan bo‘lib, ularning tasviri ham bir-biridan farq qiladi.

Jumladan, „**Farhod va Shirin**“ **dostonida** payg‘ambar tashrifidan **oy** o‘zgacha chiroyga kirsa, **Atorud** esa shodligidan bor daftar varoqlarini nobud qilishi uning yozuvchilarning homiysi ekanligi bilan bog‘liq. **Zuhra** hayratlanganidan, doirasini yirtib tashlasa, **quyosh** uyanganidan yer qariga kirip ketadi. U zot **Bahrom (Mars)**da ham bo‘lib, **Mushtariy** tomon yo‘l oladi. Payg‘ambar (s.a.v.) yettinchi falakni ham ortda qoldirib, sakkizinchisini osmoniga qadam qo‘yadi. Ko‘ramizki, „**Farhod va Shirin**“ dostonida me’rojnama „Hayrat-ul abror“ dostonining me’rojnomasi kabi falaklar ketma-ketligi o‘xshash, ammo ularning holati hamda yettinchi falak nomining keltirilmaganligi, shu bilan birga sakkizinchisini osmonning ham tasvirlanishi o‘zaro farqli jihatlaridir.

„**Layli va Majnun**“ **dostonining** me’rojnama bobida payg‘ambar (s.a.v.)ning yo‘lida yetti falakning ketma-ket kelish tartibi o‘xshash: **oy**, **Atorud**, **Zuhra**, **quyosh**, **Bahrom**, **Mushtariy**, **Zuhal**. Ulardagi holatning tasviri esa bir-biridan farqlanadi. Xuddi shunday „Sab’ai sayyor“ dostonida ham yuqorida tasviri mavjud. Shu bilan birga biz sakkizinchisini falak ham payg‘ambar (s.a.v.)ning yo‘lida uchrashi tasviriga ham guvoh bo‘lamiz.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan „Hayrat-ul abror“ me’rojnomasidagi Qur’oni Karim oyatiga „**Saddi Iskandariy**“ning me’rojnama bobida ham ishora mavjudligini sezish mumkin:

...Burun surdi Baytul-haram uzra raxsh.

Yana po‘yada qo‘ydi Aqsog‘a yuz,

Ne Aqsog‘a yuz, charxi a’log‘a yuz.

Shundan so‘ng Muhammad (s.a.v.) samoga Buroq otida ko‘tarilib, uning yo‘liga sakkiz falak: **Qamar**, **Atorud**, **Zuhra**, **Quyosh**, **Bahrom**, **Mushtariy**, **Zuhal** va sakkizinchisini falakda **turg‘un yulduzlar** uchraydi. “Lison ut-tayr” dostonida kelgan me’rojnama bobida



ham yetti falakdan so‘ng sakkizinchi falak ya’ni burjlar joylashgan osmon: **oy, Atorud, Zuhra, Quyosh, Bahrom, Mushtariy**, yettinchi va sakkizinchi osmonlar yo‘lda uchraydi. Bu falaklarning payg‘ambarni ko‘rganidao‘z holatini yo‘qotishi bayoni o‘zgacha tasvirlanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan Arsh, Kursiy, Lavh, Qalam, Lomakon hamda Rafraf – Alloh yaratgan mavjudotlar hisoblanib, ular osmonning qavatlari hisoblanmaydi. “Hayrat ul-abror” me’rojnomasida Muhammad (s.a.v) barcha manzillarni bosib o‘tib, Alloh visoliga yetishishi hamda barcha tilaklariga erishgani bayon etiladi:

Haq tilidin ummatin istab tamom,
Haqdin o‘lub barcha murodig’a kom.
Haqdan ummatining gunohlarini kechirilishini so‘raydi.

Ko‘ramizki, Alisher Navoiy me’rojnomalarini xoh diniy-islomi, xoh badiiy jihatdan tahlil etish, o‘rganish, qiyoslash, tadbiq etish qanchalik ahamiyatli. Shoir badiiy salohiyati har bir me’rojnomaning o‘ziga xos, o‘ziga mos, takrorlanmas tarzda, insoniyat hayotining mazmun-mohiyatini ochib bergenligida ko‘rinadi. “Hayrat ul-abror” dostoni komil inson qanday bo‘lishi, bu yo‘lda qaysi bosqichlardan o‘tish kerakligini o‘quvchiga o‘rgatuvchi asar hisoblanib, undagi me’rojnama bobi asar uchun asosiy negiz sanaladi. Chunki, asarda Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimiz Haqdan ummatining gunohlarini kechirishni so‘rashi, butun musulmon olamini kishiga munosib ummatga undaydi.

Adabiyotlar:

1. Uzoq Jo‘raqulov. „Hayrat ul-abror“da na’t / „Alisher Navoiy va XXI asr“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari / mas’ul muharrir Shuhrat Sirojiddinov. – Toshkent: «Mashhur-press», 2020. – B. 81-83.
2. Abdumurod Tilavov. „...Sen erding quyosh...“ (Alisher Navoiyning bir na’t g‘azali) / „Alisher Navoiy va XXI asr“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari / mas’ul muharrir Shuhrat Sirojiddinov. – Toshkent: «Mashhur-press», 2020. – B. 260-265.
3. Салаев Ф., Курбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 133.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). – Toshkent: „Tamaddun“, 2018.
5. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
6. Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Тошкент: HIOL NASHR, 2021.
7. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (Тўлиқ насрий табдил). – Тошкент, Янги аср авлоди, 2021.
8. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: «Фан», 1992.
9. Алишер Навоий. Садди Искандарий (Насрий табдил). – Тошкент, Янги аср авлоди, 2021.
10. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр (Тўлиқ насрий табдил). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
11. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: «Фан», 1993.